

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.30/30.12.2019.Fil.14.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

GULYAMOVA MUXTABAR ABDUJABBAROVNA

**O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK PR: XUSUSIYATLARI VA
TARAQQIYOT TENDENSIYALARI**

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 577.1:659.1(575.1)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on philological
sciences**

Gulyamova Muxtabar Abdujabbarovna

О‘zbekistonda ekologik PR: xususiyatlari va taraqqiyot tendensiyalari..... 3

Гулямова Мухтабар Абдужаббаровна

Экологический PR в Узбекистане: особенности и тенденции развития.....25

Gulyamova Mukhtabar Abdujabbarovna

Environmental PR in Uzbekistan: features and development trends.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.30/30.12.2019.Fil.14.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

GULYAMOVA MUXTABAR ABDUJABBAROVNA

**O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK PR: XUSUSIYATLARI VA
TARAQQIYOT TENDENSIYALARI**

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fil2010 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasiga (www.uzjoku.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qosimova Nargis Sunnat qizi

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy taqrizchilar:

Karimov Amrullo Ashurovich

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Marziyaev Janabay Kalibaevich

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.30/30.12.2019.Fil14.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ kuni soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel: (99871) 2070906; e-mail: info@jmcu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_____ -raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel.: (99871) 2070906; e-mail: info@jmcu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sherzodxon Qudratxo‘ja

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
siyosiy fanlar doktori, professor

Alijon Safarov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

Nozima Muratova

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda jadallik bilan kechayotgan rivojlanish jarayonlari natijasida yuzaga kelayotgan keskin raqobat muhiti hamda axborot globallashuvi sharoitida samarali faoliyat yuritishni maqsad qilgan davlat va biznes tuzilmalari uchun jamoatchilik bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish zarurati tobora ortib bormoqda. Global miqyosda kommunikatsiya jarayonlarini boshqarish, ijtimoiy muammolarga ta’sir ko‘rsatish hamda inqirozli vaziyatlarni samarali hal etishda jamoatchilik bilan aloqalar (public relations, PR) muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda PR nafaqat siyosiy jarayonlarda, ekologik muammolar, balki iqlim o‘zgarishi, dunyo okeanining ifloslanishi, suv taqchilligi, yer rekultivatsiyasi, bioxilma-xillikning kamayishi, ozon qatlaminig yemirilishi, chiqindi poligonlarini boshqarish, ularning utilizatsiyasi jarayonlarida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli ekologik PRga oid tadqiqotlarning olib borilishi xalqaro miqyosda dolzarb masala sifatida baholanmoqda.

Dunyoda global ekologik inqiroz sharoitida atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanishni ta’minlashda ekologik kommunikatsiyaning o‘rni hamda ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, korporativ ijtimoiy mas’uliyat va yashil iqtisodiyot tamoyillariga oid ilmiy izlanishlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Shu bilan birga, ekologik PR texnologiyalarining grinvoshing (greenwashing) holatlariga barham berish, jamoatchilikning ekologik ongini yuksaltirish hamda aholiga zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali ishonchli va aniq axborot yetkazishdagi roli chuqur o‘rganilishini talab etmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi yuzasidan ekologik siyosat yuritilib, davlat va jamiyat o‘rtasida sifatli muloqotni yo‘lga qo‘yish, aholiga islohotlarning maqsadi, vazifalari, natijalari haqida tezkor, xolis, to‘liq axborot yetkazish, ekologik tashkilotlar faoliyati shaffofligini oshirish, ularning jamoatchilik bilan aloqalari samaradorligini tubdan yaxshilashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. “Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”¹. Jamiyatning ekologik madaniyatini oshirishda PR vositalari hamda ta’lim va axborot kampaniyalari asosiy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Mamlakatimizda so‘nggi yetti yilda olib borilayotgan ochiqlik siyosati natijasida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishini oldini olishda jamoatchilikning ekologik mas’uliyatini oshirish muhim vazifaga aylanib, ekologik PR sohasidagi zamonaviy yondashuvlarni ilmiy jihatdan tadqiq qilish zarurati kuchaymoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonuni², O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-oktyabrdagi PQ-3956-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 27-iyundagi PQ-43-66-son

¹Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 303.

²O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonuni // URL: <https://lex.uz/mact/-2381133>

“Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”, 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarorlari³, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi farmoni⁴ hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ekologiya masalalari turli fan yo‘nalishlari doirasida chuqur tadqiq etilgan bo‘lib, bu boradagi izlanishlar siyosat, madaniyat, ta’lim, falsafa va jurnalistika sohasi tadqiqotchilari tomonidan keng o‘rganilgan⁵. Xalqaro miqyosda atrof-muhit muammolarining kommunikativ jihatlari PR nazariyasi doirasida o‘rganilib, mazkur mavzuga oid konseptual

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-oktyabrda “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3956-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/3930219>; 2019-yil 27-iyunda “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-43-66-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/4390513>; 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-436-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-6303230>.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-son farmoni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

⁵ Azizov T.A. Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga doir davlat siyosatining diskursi (O‘zbekiston va Rossiya misolida). Siyos. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2019. – 165 b.; Aymatov A.Q. Shaxsning tabiatga estetik munosabatini shakllantirishda ekologik ongning roli. Fals. fan. d-ri ... diss. – Samarqand, 2019. – 246 b.; Арутюнов В.В. Паблицити в системе социальной ответственности российских корпораций. Дисс. на соискание уч. степени докт. наук по специальности 10.01.02. – Социологии. – Москва: МГУ, 2005. – 289 с.; Renegar L.A. Which Green Policy? An Analysis of the Relationship between State Environmental Policy and State Economic Growth PhD. – Louisiana State University, 2007 // <http://etd.lsu.edu/docs/available/etd-05312007-094533/>; Маслов М.А. Синтез и изучение свойств положительно заряженных гидрофобных производных циклических и ациклических полиолов. Канд. хим. наук. – М., 2000. – 97 с.; Sattorov M.D. Yoshlar ongida tabiatga estetik munosabatni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 51 b.; Abduazimova Z.A. Globallashuv jarayonida ekologik axloqni shakllantirishga konseptual yondashuv. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 52 b.; Етвеев И.А. Экологическое сознание как элемент экологической культуры. Экологическое сознание как элемент экологической культуры. Дисс. ... канд. культурологических наук: 24.00.01. – Челябинск, 2004. – 149 с. РГБ ОД, 61:05-24/44; Лагутин А.О. Экологическая культура как фактор устойчивого развития общества. Тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 24.00.01, кандидат культурол. наук. – Краснодар, 2001 – 19 с.; Ketrin L. The Relationship Between Public Understanding of Science and Support for Environmental Restoration. PhD. University of Otago. Department, 2020 // <http://hdl.handle.net/10523/4912>; Qosimova N.S. Ekologik jurnalistika O‘zbekiston siyosatida: rivojlanish tendensiyalari va o‘zaro hamkorlikni amalga oshirish usullari. Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2020. – 225 b.; Mirziyayev J.K. Mustaqillik yillari qoraqalpoq matbuotida ekologik muammolar talqini. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 52 b.; Джумагазиева Н. Освещение проблем экологии в периодической печати Кыргызстана (1996-2006 г.г.) Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Бишкек, 2010. – 23 с.; Тоирова Ш.М. Особенности развития современной таджикской экологической журналистики в свете проблем водных ресурсов строительства Рогунской ГЭС и чрезвычайных ситуаций. – Душанбе, 2015. – 168 с.; Шаркова Е.А. Экологическая журналистика в региональных политических процессах (на примере Архангельской области). Дисс. ... канд. полит. наук. – СПб, 2012. – 203 с.

yondashuvlar E.Bernays, S.Black, F.Hackett, H.Toddning tadqiqotlarida aks etgan⁶. Shuningdek, ekologik PR tushunchasi va uning fenomenologik asoslari B.Harrison, J.Grunig, R.Cox, D.Sachman, J.Dai, F.Zeng, H.Gu hamda K.Prasad tomonidan o‘rganilgan⁷.

MDH mamlakatlari doirasida ekologik PRning nazariy va amaliy asoslari L.Koxanova, V.Gerasimov, A.Krivanosov, T.Danilyuk, K.Xamaganova, S.Raximbekova, A.Nesterov, A.Chumikov va M.Roslyakova tomonidan tadqiq etilgan⁸.

O‘zbekistonda ekologik PRga doir ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. Jamoatchilik bilan aloqalar tadqiqi T.Eshbekov hamda U.Islombekov⁹ tomonidan bajarilgan. PR nazariyasi, tarixiga oid F.Mo‘minov, Q.Irnazarov, N.Qosimova, G.Nishonova, F.Nesterenko, N.G‘afforovning nazariy adabiyotlari¹⁰ mavjud.

⁶ Бернайс Э. Кристаллизация общественного мнения. – Москва: Вильямс, 2015. – 272 с.; Black S. Introduction to Public Relations. Published by Modino Press Ltd., 2011. – 240 p.; Hackett F. A Theory of Public Relations. – N.Y.: Harper & Brothers. 1938. – 178 p.; Todd H. (Todd Terrance). Managing Public Relations. – N.Y.: CBS College Publishing, 1984. – 234 p.

⁷ Harrison B. Going green: How to Communicate Your Company’s Environmental Commitment. – USA: Business One Irwin, 1993. – 344 p.; Grunig J.E. Review of research on environmental public relations. Public Relations Review, 1977. Autumn. Volume 3. Issue 3. – P. 36-58 // <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0363811177802129>; Excellence in public relations and communication management. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1992. – 478 p.; Cox Robert J. The environmental communication and the public sphere. – Washington: Sage Publishing, 2010. – 400 p.; Sachsman D. Public Relations Influence on Coverage of Environment in San Francisco Area // Journalism & Mass Communication Quarterly, 1973. March. – № 53 (1). – P. 54-60; Dai J., Zeng F. Environmental Risk Communication in China Actors, Issues, and Governance. – Routledge, 2023. September 25. – 308 p. // <https://www.routledge.com/Environmental-Risk-Communication-in-China-ctors-Issues-and-Governance/Dai-Zeng/p/book/9781032103334>; Gu H. Study on China’s National Image in International and Chinese Media. An Ecological Discourse Analysis Approach // 7th International Conference On Financial Management, Education And Social Science. – Fmess, 2024. Vol. 30. – 126 p.; Prasad K. Communication of Green Policies for Sustainable Development in India // Science Communicator. Inter-Disciplinary Journal For Science Communication And Journalism, 2016. January & June. Volume 07. Issue 01 & 02 (Combined Issue). Directorate of Public Relations & Publications Cochin University of Science and Technology. – P. 154-164.

⁸ Коханова Л.А. Экологическая журналистика, PR и реклама: учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по специальности 030601 «Журналистика» / Л.А.Коханова; под. ред. Я.Н.Засурского. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 384 с.; Герасимов В.Е. Экологический PR: от теории к практике. – Москва: ИД «Городец», 2020. – 272 с.; Кривонос А.Д. Субъекты и объекты «экологического» PR // А.Д.Кривонос // Экологический PR как современная коммуникативная стратегия: обеспечение вопросов информационной безопасности и устойчивого развития современного социума. Экологический PR как инструмент устойчивого развития: Материалы международной научно-практической конференции 13 мая 2014 г. – СПб.: РГТМУ, 2014. – С. 46-51; Феноменология «отраслевых» PR // Российская школа связей с общественностью, 2016. – № 8. – С. 78-87; Данилюк Т.А., Хамаганова К.В. Экологический PR в современной России: современное состояние и перспективы развития // Труды института бизнес-коммуникаций, 2017. Том 1. – С. 71-74; Рахимбекова С. Зеленый путь: Ехро-2017 и зеленая экономика / Салтанат Рахимбекова. 3-48. 2-е изд. (Аналитический обзор). – Глаسير, 2018, – 228 с.; Нестеров А.Г. «Зеленые» партии и движения как фактор политической жизни современной Европы. – СПб.: РГТМУ, 2014. – 344 с.; Чумиков А.Н. Паблик рилейшнз – связи с общественностью. – Москва: Дело, 2000; Рослякова М.В. Социальные сети в деятельности органов исполнительной власти: адаптация к новым способам взаимодействия // Социодинамика, 2022. – № 7. – С. 42 - 56. DOI: 10.25136/2409-7144.2022.7.38467 EDN: MAZJKV URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=38467.

⁹ Эшбеков Т.У. Ўзбекистонда Қонун чиқарувчи ҳокимиятнинг жамоатчилик билан алоқлари ва оммавий ахборот воситалари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 165 б.; Исломбеков У.И. Сиёсатда “Жамоатчилик билан алоқалар” технологияларини қўллаш имкониятлари (Ўзбекистон Республикаси мисолида). Сиёс. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 158 б.

¹⁰ Муминов Ф.А. Паблик рилейшнз: история и теория. – Ташкент: Ijod dunyosi. 2004. – 119 с.; Ирнazarov К.Т. ва б. Репортёрлик фаолиятининг назарияси ва амалиёти. – Тошкент, 2002. – 202 б.; Ахборот хизматлари учун амалий қўлланма: жамоатчилик билан самарали мулоқот / Н.Қосимова, Г.Бобожонова, Л.Исломова. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2013. – 132 б.; Нишонова Г., Шукурова Г. ва бошқ. Замонавий медиа муҳитда PR-хизматлар. ЖВИИИ. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2019. – 512 б.; Луғат-

Tadqiqot mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Zamonaviy PR va jamoatchilik bilan aloqalarning dolzarb masalalari" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistondagi ekologik tashkilotlar jamoatchilik bilan aloqalarining ahamiyatini tadqiq etish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda ekologik PR muammolari va tendensiyalarini aniqlash hamda uning istiqbollari bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ekologiya sohasida jamoatchilik bilan aloqalarni tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari, atrof-muhit muammolari xususiyatlarini aniqlash va ekologik PR tushunchasi ta'rifini takomillashtirish;

ekologik madaniyatni shakllantirishda jamoatchilik bilan aloqalarning o'rni va rolini aniqlash;

ekologik tashkilotlarning jamoatchilik bilan aloqalarini samarali yo'lga qo'yish mexanizmlarini ishlab chiqish;

"Yashil PR" misolida ekologik PRni ijtimoiy-kommunikasion texnologiya sifatidagi funksiyalarini ochib berish;

axborot xizmatlari tomonidan jamoatchilikka xabar yetkazish vositalarini tizimlashtirish va ularda qo'llaniladigan PR-texnologiyalarni tavsiflash;

milliy davlat va nodavlat ekologik tashkilotlarning jamoatchilikka axborot yetkazish usul hamda vositalarini tahlil qilish orqali mavjud muammolarni aniqlash;

ekologik tashkilotlar axborot xizmatlarida jamoatchilik fikrini o'rganish prinsiplari asosida muammoli vaziyatlarni tahlil etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, O'zbekiston Ekologik partiyasi hamda "Ekolog" jamoat birlashmasining axborot xizmatlari faoliyatida jamoatchilikka taqdim etadigan bosma va elektron materiallari hamda jamoatchilik fikrini o'rganishga qaratilgan vositalari tanlandi.

Tadqiqot predmetini ekologik tashkilotlarning jamoatchilik bilan aloqalarni yuritishda korporativ sayt, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarida qo'llaniladigan PR texnologiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, statistik, analiz, sintez, qiyoslash, empirik va nazariy metodologiya (tarixiy-qiyosiy, tarkibiy-tipologik) kontent-tahlil hamda so'rovnoma usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ekologik PR texnologiyalarning atrof-muhitni muhofaza qilishga doir davlat siyosatini amalga oshirish, ijtimoiy javobgarlikni shakllantirish, ekologik masalalar yuzasidan jamoatchilikni xabardor qilish hamda ekologik madaniyatni yuksaltirishda muhim kommunikativ mexanizm ekanligi isbotlangan;

маълумотнома: Журналистика. Реклама. Паблик рилейшнз. 1700 атама / Нестеренко Ф. ва бошқ. – Тошкент: Зар қалам, 2003. – 400 б.; Гаффоров Н. Жамоатчилик билан алоқалар. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2004. – 58 б.

davlat boshqaruvi organlari va nodavlat tashkilotlar faoliyatida ekologiyani muhofaza qilish usul hamda vositalarilaridan foydalanish, biznes taraqqiyoti hamda brend imijini yaratishda ekologik PRning roli va tendensiyalarini namoyon qiluvchi mediativ strategiyalar ishlab chiqilgan;

tashkilotlarning ekologik imijini shakllantirishda ijtimoiy-kommunikatsion texnologiyalarning zarurati aniqlanib, live striming, interaktiv kontent yaratish, ma'lumotlarni vizuallashtirish, blokcheyn texnologiyalari orqali ekologik sertifikatlarni verifikatsiya qilish va ularni ekologik PRda qo'llash zarurati asoslangan;

ekologik xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhit muammolarini bartaraf etishda "yashil PR" texnologiyalaridan foydalanishga qaratilgan integratsion va konseptual modellarini qo'llash zarurati dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan jamoatchilik bilan aloqalarni samaradorligini oshirishda tashkilot axborot xizmati tomonidan jamoatchilikka korporativ sayt, OAV, internet, ijtimoiy tarmoqlar hamda maxsus nashrlar tezkor, qiziqarli kontent berish, ularni maxsus tadbirlar, omma oldida chiqish, PR-kampaniyalarni tashkil etish orqali amalga oshirish lozimligi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

O'zbekistonda ekologik tashkilotlarning axborot xizmatlari faoliyati, ularning jamoatchilikka axborot yetkazish va fikrini o'rganishi, muammolarni o'rganib, yechim berish usullari va vositalari bo'yicha masalalar ijtimoiy so'rovnoma asosida tahlil qilingan;

ekologik tashkilotlarning axborot manbalarini yuritishi, materiallar mavzu ko'lamini, OAV monitoringi hamda jamoatchilik fikrini o'rganilishi yuzasidan muammoli masalalar tahlil qilinib, aniqlangan muammolarga yechimlar keltirilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga DW77243703 kodli murojaat (№ 03-01/150 Sana: 10.02.2024-yil) bilan chiqilib, vazirlik axborot xizmati haqida hamda ularning OAV, korporativ sayt, ijtimoiy tarmoqlarda axborot uzatishi yuzasidan hisobotlari o'rganilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ekologik tashkilotlarda jamoatchilik bilan aloqalarni shakllantirishda empirik usullar majmuidan foydalanilgani, nazariy ma'lumotlarni ilmiy manbalar bilan asoslanilgani, tahlillar tadqiqot predmetiga muvofiqligi, chiqarilgan xulosa hamda olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlangani bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ekologik PRning o'ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot tendensiyasi, jamiyatda ekologik muammolarni bartaraf etishda jamoatchilikka raqamli va ijtimoiy media platformalari orqali turli PR texnologiyalarni qo'llash lozimligi asoslab berilganligi, atrof-muhit sohasida jamoatchilik bilan aloqalar xorijiy tajribalar qiyosida nazariy tavsiyalar yaratilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim tizimida axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar sohasida ekologiya yo'nalishlarida darslik, o'quv qo'llanma, o'quv dasturlari yaratish, matbuot kotiblari uchun uslubiy qo'llanma, tavsiyanomalar, maxsus kurs va seminarlar tashkil etish hamda xalqaro va

mahalliy loyihalarni ishlab chiqishda muhim manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Ekologik PR xususiyatlari, taraqqiyot tendensiyalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ekologik mavzuda jamoatchilikka axborot yetkazishda davlat va nodavlat tashkilotlar veb-saytida til hamda alifbo masalasiga jiddiy yondashish, bloglarda turli janrlardagi materiallarni tadqim qilish, jurnalistlar uchun PR-matnlar blogini tashkil etish lozimligi haqidagi xulosalardan O'zbekiston ekologik partiyasi jamoat tashkilotining rasmiy sayti, OAV bilan aloqalari hamda ijtimoiy tarmoq sahifalaridagi materiallarni qayta tahlil qilishda foydalanilgan (O'zbekiston ekologik partiyasining 2024-yil 12-avgustdagi 01-02/346-son ma'lumotnomasi). Natijada partiya sayti obunachilari soni ortishi, unda beriladigan axborotga jamoatchilik tomonidan izohlar qoldirilishi hamda saytda xabarlar boshqa aloqa kanallariga ulashilishiga xizmat qilgan;

nodavlat ekologik tashkilotlar jamoatchilik bilan aloqalar olib borishda mutasaddilari bilan intervyular, jamoatchilik ishtirokida aksiyalar, tanlovlar, festivallar, muammoli vaziyatlarga doir davra suhbatlari, maxsus tadbirlar alohida o'rin tutishi masalasida mutasaddilar bilan intervyular orqali tashkilot o'z faoliyatini yoritib, jamoatchilikning diqqatini atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq dolzarb muammolarga qaratishi bo'yicha xulosalardan "Ekolog" jamoat birlashmasi faoliyatida foydalanilgan ("Ekolog" jamoat birlashmasining 2024-yil 14-avgustdagi 01-50-son ma'lumotnomasi). Natijada jamoat birlashmasi tomonidan tashkil etilgan maxsus tadbirlar orqali keng jamoatchilik ishtiroki ta'minlangan hamda ekovolontyorlar soni yanada ortgan;

ekologik mavzularning OAVda keng yoritilishi aholi ekologik madaniyatini yuksaltirishdagi asosiy vazifalardan ekani, bu borada nazariy fikrlar asosida mamlakatimizning telekanallari monitoring amalga oshirilishi lozimligi borasidagi xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Dunyo bo'ylab" telekanalidagi "Landshaft.uz" va "Agro tur" ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Dunyo bo'ylab" telekanalining 2024-yil 25-iyuldagi 03.14-161-son ma'lumotnomasi). Natijada ekologik mavzularni yoritishda asosiy vositalardan hisoblangan teleko'rsatuvlar orqali aholining bu boradagi tushunchalarini yanada ortishi, atrof-muhitga e'tiborli bo'lish masalasidagi qarashlari hamda omma tomonidan ushbu ko'rsatuvlarga yuboriladigan xatlar mazmunan boyishiga xizmat qilgan;

yoshlar o'rtasida taniqli sportchilar, san'atkorlar, kinoyulduzlarning ekologik tashabbuslariga katta e'tibor qaratilishi, ularning ekologik manfaatlarni himoya qilishi, tabiatni asrash, tiklash va unumli foydalanish to'g'risidagi fikrlarini ommaviy axborot vositalari orqali, xususan, televideniya keng tarqatish lozimligi haqidagi xulosalar "Renessans" telekanalining "Renessans minbari" va boshqa qator ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy media assotsiatsiyasining 2024-yil 12-avgustdagi 01-02/670-son ma'lumotnomasi). Natijada "Renessans" telekanalining 2024-yilda efirga uzatilayotgan ko'rsatuvlarida taniqli yosh yulduzlarning ekologiya masalasidagi fikrlari berila boshlanib, bu orqali ekologik mavzu yanada ommalashishiga erishilgan. O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti

bakalavr bosqichi talabalari uchun “Ekologik PR” fanining o‘quv dasturi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan. O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universitetida ekologik loyihalar doirasida tashkilot professor-o‘qituvchilari hamda axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar yo‘nalishi talabalariga mahorat darslari o‘tildi.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 6 ta xorijiy yuqori impakt faktorli jurnallarda nashr etildi.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 139 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning **Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslantirilib, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti ochib berilgan. Bundan tashqari, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilib, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi va tadqiqotning tuzilishi va hajmi haqida batafsil ma‘lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Ekologik PR tushunchasi: mohiyati, nazariy-metodologik asoslari va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan birinchi bobining “Ekologik PRga doir ilmiy-nazariy qarashlar tahlili” paragrafida, ijtimoiy muloqot va kelishuvni ta‘minlashning yangi usul hamda vositalari vujudga kelib, mazkur tadqiqot davomida o‘rganilgan ekologik PR, umuman, “Public relation” texnologiyalari bunga misol bo‘la olishi ta‘kidlanib, ekologik PRning ilmiy asoslari, umuman, “Jamoatchilik bilan aloqalar” – Public Relations – PR” tushunchalarining o‘ziga berilgan ta‘riflarni qisman ko‘rib chiqilgan. Ushbu faslda jamoatchilik bilan aloqalar asoschilari Edvard L. Berneysb, Jeyms Gruning, Frensis Xakett, Todd Xant asarlari tahlil qilingan va jamoatchilik bilan aloqalar sohasida tadqiqotlar hamda ta‘limni qo‘llab-quvvatlashga ixtisoslashgan Public Relations Instituti va boshqa nufuzli ilmiy markazlarning ta‘riflari umumlashtirilgan.

Shuningdek, ekologik PRga oid nazariya va qarashlar, Klod Shennon va Uorren Uiverlar tomonidan taklif etilgan matematik kommunikatsiya nazariyasi, amerikalik olim, “Ekologik kommunikatsiya va jamoatchilik sohasi” asari muallifi Robert Koksning tadqiqotlari, bu yo‘nalishni asoslab bergan olimlardan biri Devid Sachman qarashlari, “Amerika jamoatchilik bilan aloqalarni tadqiq qilish va ta‘lim jamg‘armasi” buyurtmasini asosida Jeyms Gruningning tabiat va atrof-muhit sohasidagi PRga oid tadqiqotlari sharhlab berilgan. Shuningdek, xitoylik olimlardan Jia Day va Fensu Jenglarning izlanishlari, hind olimi Kiran Prasad,

rossiyalik olim A.Krivososov, T.Danilyuk va K.Xamaganovning fikrlari umumlashtirilgan hamda “Ekologik PR” tushunchasiga yaxlit ta’rif berilgan.

Tahlillar natijasida “Ekologik PR” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: Ekologik PR barqaror rivojlanish, tabiat va atrof-muhitni, biologik xilma-xillikni saqlash maqsadida ijtimoiy hamkorlikni ta’minlashga qaratilgan faoliyat hisoblanib, u davlat organi, biznes subyekti yoki nodavlat birlashmasining ekologik mas’uliyatini oshirish hamda jamiyat a’zolarining ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadini ko’zlaydi. Shuningdek, ekologik PR ekologik toza tovar va xizmatlarni ommalashtirishga qaratilgan marketing strategiyalari yig’indisi bo’lib, uning asosiy maqsadi iste’molchilarning xatti-harakatlarini tabiatga ongli va mas’uliyatli munosabatda bo’lishga o’zgartirishdir.

Bobning “Ekologik madaniyatni shakllantirishda jamoatchilik bilan aloqalarning o’rni va roli” deb nomlangan ikkinchi paragrafida “Ekologik madaniyat” tushunchasiga doir ilmiy tadqiqotlar umumlashtirilib, uning aksiologik¹¹, tizimli¹² va xulq-atvorga¹³ ko’ra yondashuvlari izohlangan. Shuningdek, ekologik madaniyat ijtimoiy me’yor namunalariga ta’sir qilib, inson faoliyatini ekologik muvozanatga erishishga yo’naltirish orqali ko’rinadi. Bu doirada, tabiiy muhitni muhofaza qilishga intilish hamda barqarorlik va mas’uliyatli yondashuvlarni qo’llash, jamoatchilik ongini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi isbotlab berilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida jamiyatdagi ekologik madaniyat darajasi bilan ekologik PR faoliyatining samaradorligi o’rtasida mustahkam aloqa borligini ko’rsatib berilgan. Empirik ma’lumotlarning tahlili orqali bu jarayonning turli muhim jihatlari yoritilishi mumkin. Jamoatchilikning ekologik bilim va ongi qay darajada yuqori bo’lsa, ekologiya sohasida amalga oshirilayotgan vazifalarning natijasi ham shu qadar samarali bo’ladi. Bu o’zaro munosabatlar “yashil” tashabbuslarni qo’llab-quvvatlashga va atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan sa’y-harakatlarni kuchaytirishga yordam beradi. Jamiyatning umumiy ekologik madaniyatini oshirish PR vositalari hamda ta’lim va axborot kampaniyalari orqali rivojlantirilishi mumkin bo’lib, bu ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo’ladi. Ekologik muammolarni bilish va anglash darajasining ortishi bilan jamoatchilikning bu boradagi faolligi hamda konstruktiv reaksiyasi ham ortib boradi. Shunday ekan, ekologik PR subyektlari jamiyatni safarbar qilishda muvaffaqiyatga erishishi uchun, ekologik madaniyat shakllangan bo’lishi kerak.

“Ekologik PR ijtimoiy-kommunikatsion texnologiya sifatida: “Yashil PR” misolida”, deb nomlangan bobning uchinchi paragrafida ekologik jihatdan toza mahsulotlarga bo’lgan talab ortib borayotgan, ekologik PR orqali mahsulot va xizmatlarning ekologiyaga muvofiq jihatlari, ya’ni ularning qayta ishlanish jarayonlari, tabiiy resurslarni oqilona qo’llash kabi xususiyatlari keng yoritilib, targ’ib qilinishi va shu orqali reklama qilinishi ochib berilgan.

¹¹ Мухамедшина Л.О сущности и содержания понятия «экологическая культура» // Начальная школа плюс. До и После, 2012. – № 1. – С. 83.

¹² Ясвин В. Формирование экологической культуры не сводится к экологическому образованию // Бюллетень Центра экологической политики «На пути к устойчивому развитию», 2006. – № 34. – С. 7.

¹³ Kollmuss A., Agyeman J. (2002) Mind the gap: Why do people act environmentally and what are the barriers to pro-environmental behavior? Environmental Education Research. Vol. 8. No. 3. – P. 239-260; Kaiser F., Wilson M. Assessing People’s General Ecological Behavior: A Cross-Cultural Measure // Journal of Applied Social Psychology. Vol. 30. No. 5. – P. 952-978.

“Yashil PR” – bu kompaniyalar va ularning mahsulotlari yoki xizmatlariga nisbatan ekologik jihatlarni ommalashtirish orqali iste'molchilarning talablari va xohishlarini shakllantirishga qaratilgan strategik faoliyatdir. Bu tashabbus bilan ilg'or texnologiyalar va qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish, atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan harakatlarni targ'ib qilish orqali tashkilotlarning ekologik “yuzi”ni yaxshilashga qaratilgan.

“Yashil PR” tushunchasi, asosan, kompaniyalarning ekologik toza mahsulotlari va xizmatlarini ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib qilishni aks ettirsa, “Ekologik PR” tushunchasi bu yo'nalishdagi barcha kompleks faoliyatlarni o'z ichiga oladi va ko'pincha tijoriy maqsadlarni ko'zlamaydi. Bunda kompaniyalar, ekspertlar, OAV hamda aholi o'rtasidagi munosabatlar muvozanatini ta'minlashga harakat qilish nazarda tutiladi deb xulosa qiladi muallif.

Dissertatsiyaning **“Barqaror rivojlanishni ta'minlashda ekologik PRning ahamiyati”** deb nomlangan ikkinchi bobining “Atrof-muhit muhofazasida ekologik PR texnologiyalaridan foydalanish tendensiyalari: xalqaro amaliyot” deb nomlangan paragrafi bu borada rivojlangan davlatlar amaliyotini tahlil qilishga bag'ishlangan.

1950-1960-yillarda ishlab-chiqarishning jadal o'sishi davri, asosan, iqtisodiy (foyda olish) va siyosiy (davlat qudrati yuksalishi) manfaatlar bilan bog'liq bo'lgan. Bu davrda tabiatga nisbatan bepisand qarash kuzatilgan edi. Shu o'rinda fransuz nazariyotchisi Andre Gorsning fikrini keltirib o'tsak: “Ishlab chiqarish jarayoni, ayni paytda, biror narsani yo'q qilishni ham anglatadi. Bu haqiqatni ayrim odamlar e'tibordan chetda qoldirib kelishgan, to ishlab chiqarish tabiiy resurslarga to'xtovsiz zarar yetkazmaguncha. Afsuski, bu endi ortga qaytmas jarayondir. Yer tabiatining inson turmushi uchun yaratilmagani allaqachon ma'lum”¹⁴.

Ekologik muammolarning vujudga kelishida kimyo sanoati ham katta rol o'ynadi, bir qator ekologik ofatlarga sabab bo'ldi. Xususan, 1976-yilda Italiya kimyo zavodida sodir bo'lgan portlash butun boshli Sevezo shahrining evakuatsiya qilinishiga olib keldi. Fukusima halokati esa Yaponiyaning rivojlangan sanoati sharoitida ham bunday ofatlarning yuz berishi mumkinligini namoyon etdi. Ekojurnalistika muammolarini tadqiq qilgan olim N.Qosimova ham bu masalaga alohida to'xtalib: “1960-1980-yillarda dunyo ommaviy axborot vositalarida ilk marotaba texnogen va ekologik halokatlar oqibatida insoniyatning atrof-muhitga salbiy ta'siri xususida jurnalistik materiallar e'lon qilina boshlandi. Muhim ekologik muammolarning OAVda ko'tarilishi va bu borada aholi xabardorligining oshishi davlatlarning ekologik siyosati shakllanishiga olib keldi”¹⁵, deb yozadi.

Ushbu faslda ekologik PRning samarali vositalari ko'rib chiqilgan. Shulardan biri ta'sirchan, taniqli shaxslarning omma oldidagi chiqishlari hisoblanadi. Taniqli shaxslar jamoat oldida katta ta'sir kuchiga ega bo'lgani bois, ularning ekologik tashabbuslari aholini jalb qilishda samarali vositadir. Ular turli ijtimoiy tadbirlarda faol ishtirok etishadi hamda ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlar qilgan holda jamoatchilikning ekologik savodxonligini va madaniyatini oshirish uchun hissa qo'shib, jamoatchilikni ekologik masalalarga yetarlicha e'tibor qaratishga

¹⁴ Горц А. Экология и свобода // *Écologie et liberté* (Galilée, 1977) / Перевод А.Голова. – Б/и, 1977. – С. 22.

¹⁵ Qosimova N. Ekologik jurnalistika O'zbekiston siyosatida: rivojlanish tendensiyalari va o'zaro hamkorlikni amalga oshirish usullari. Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2021. – B. 22.

targ'ib qiladilar. Mashhur kishilarning omma oldidagi chiqishlari haqida to'xtalganda, Rim klubi a'zolari, shuningdek, Greta Tunberg kabi PR-obrazlarning chiqishlari alohida tahlil qilingan.

Ekologiya sohasida jamoatchilik bilan aloqalarni tahlil qilar ekanmiz, bu jabhadagi soxta, jamaotchilikni chalg'itishiga xizmat qiluvchi ayrim texnologiyalarga ham to'xtalib o'tish lozim. Ayrim davlatlarida uchrab turadigan "Greenwashing" ("Yashil yuvish") va "Greenscamming" ("Yashil firibgarlik") shular jumlasidandir. Bu korxonaning ekologik yo'nalishda ishlayotgandek taassurot uyg'otish uchun ayyor marketing strategiyalaridan foydalanishni anglatadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, tovarlarni sotib olishda ularning ekologik jihatdan tozaligi xaridor uchun muhim ahamiyatga ega. Odatda, iste'molchilar o'z sog'lig'ini asrash va atrof-muhitning muhofazasini ta'minlash maqsadida ekologik xavfsiz hamda tabiiy mahsulotlarga ustunlik berishni ma'qul ko'radilar. Bu holatni inobatga olgan holda, ishlab chiqaruvchilar va marketing mutaxassislari mahsulotlariga "eko", "bio", "organik" yoki "tabiiy sof mahsulot" kabi belgilarni qo'yish orqali bozor talablarini qondirishga intiladilar. Bu belgilar mahsulotni ekologik va salomatlik uchun xavfsiz deb ko'rsatishga yordam beradi, shu orqali iste'molchilarning ishonchiga sazovor bo'lishga va sotib olish qarorlariga ta'sir o'tkazishga harakat qilishadi.

Mazkur bobning "O'zbekistonda ekologik PRni tashkil etishda davlat organlari tajribasi" faslida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 49-moddasida "Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi"¹⁶, deb ko'rsatilgani ta'kidlanib, O'zbekiston rahbari tomonidan taklif etilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va boshqa tegishli qonunchilik hujjatlaridagi atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiat resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan me'yorlar o'rganib chiqilgan.

Ushbu faslda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining jamoatchilik bilan aloqalar o'rnatish borasidagi faoliyati tahlil qilinadi. Vazirlik jamoatchilikka ma'lumot tarqatishda turli zamonaviy usullar va vositalarni qo'llab kelmoqda. Buning uchun vazirlik o'zining rasmiy veb-saytini ishga tushirgan bo'lib, u yerda ekologik muammolar, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va islohotlar haqida muntazam ravishda ma'lumot beriladi. Vazirlik matbuot xizmati orqali aholini doimiy ravishda yangiliklardan xabardor qilib turishga harakat qilmoqda. Shunday qilib, vazirlikning rasmiy platforma va kanallari orqali yaylovchi axborot fuqarolarni ekologik faoliyatlar haqida o'z vaqtida xabardor qilishga xizmat qiladi.

Hozirgi axborot kommunikatsiyalari texnologiyalari rivojlangan zamonda jamoatchilikka axborot yetkazishdagi asosiy vosita bu tashkilotning internetdagi sayti hisoblanadi. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ham o'zining uznature.uz rasmiy veb-sayti orqali faoliyatini jamoatchilikka namoyon qilmoqda.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi o'zining ekologik tashabbuslari, loyihalari va yangiliklari haqida keng jamoatchilik bilan doimiy ravishda samarali muloqot qilishga intilishi bilan ajralib turadi.

¹⁶ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

Xususan, vazirlik tomonidan Instagramda ochilgan rasmiy akkaunt (instagram.com/ecogovuz/)ning 1551 nafar obunachisi bor ekanligi shuni ko'rsatadiki, ushbu ijtimoiy tarmoq orqali vazirlik o'z faoliyatini jamoatchilikka yetkazish borasida samarali natijalarga erishmoqda. Uning telegram tarmog'i orqali 7252 nafar obunachiga doimiy ravishda yangiliklar va ahamiyatli ma'lumotlarni yetkazmoqda. Shu bilan bir qatorda, ular YouTube va X (Twitter) kabi ijtimoiy tarmoqlarda ham faol ishtirok etib, jamoatchilik bilan bevosita aloqa va muhokamalarga kirishish imkoniyatini yaratishda davom etmoqda.

Vazirlikning ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'proq auditoriyaga yetishi va ular bilan samarali muloqotni ta'minlashi uchun quyidagi choralar qo'llanishi lozim:


- doimiy ravishda qiziqarli, foydali va yuqori sifatli kontentni yaratish hamda uni joylashtirish;

- auditoriyani jalb etish uchun tanlovlar va aksiyalar kabi tashviqot tadbirlarini tashkil etish maqsadga muvofiq;

- ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan foydalanuvchilar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish lozim;

- vazirlikning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida muhim masalalar bo'yicha jamoatchilik fikrlarini tinglab, ochiq muloqotni yo'lga qo'yish muhim. Ushbu faoliyatni muntazam ravishda tahlil qilish, natijalarni baholash va zarur hollarda yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish ham lozim.

Shuningdek, mazkur faslda 2022-2023-yillar kesimida Vazirlikning OAVdagi chiqishlar soniga ko'ra monitoringi ko'satilgan:




1-rasm. Vazirlikning 2022-2023-yillardagi hisobotlari asosida yaratilgan OAVdagi chiqishlari monitoringi (tadqiqot davomida ishlab chiqilgan).

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlari vazirligi o'z faoliyati haqida jamoatchilikka axborot yetkazishda zamonaviy PR-texnologiyalaridan imkon qadar foydalanmoqda, degan xulosaga kelish mumkin. Bu maqsadda vazirlikning rasmiy veb-sayti, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar asosiy kanallar sifatida faoliyat yuritmoqda. Axborot berish jarayonida ular matbuot anjumanlari, brifinglar, seminarlar, davra suhbatlari, intervyular, aksiyalar, tanlovlar, festivallar, ko'rgazmalar kabi tadbirlardan foydalanayapti. Shuningdek, fotosuratlar, kinofilmlar, videolavhalar va multimediya mahsulotlari bilan suhbat hamda uchrashuvlar ham tashkil etiladi. Bunday faoliyat jamoatchilikni vazirlikning ekologik vazifalari va tashabbuslari bilan tanishtirishda muhim rol o'ynaydi.

“Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida ekologik PRdan foydalanish imkoniyatlari” deb nomlangan uchinchi faslda, hozirgi kunda ekologik masalalar bo‘yicha jamoatchilik bilan samarali aloqalar o‘rnatish xususiy sektor uchun muhim vazifaga aylangani ta’kidlanadi. Tadqiqot davomida O‘zbekistondagi ekologik partiya va bir qator nodavlat-notijorat tashkilotlari atrof-muhit bo‘yicha jamoatchilikka ma’lumot yetkazish hamda ularning fikrlarini o‘rganish yo‘llarini qanday boshqarganliklari tahlil qilindi. Bunda, tashkilotlarning muvaffaqiyatga erishish strategiyalari va faoliyati asosiy diqqat markazida bo‘ldi. Tahlil jarayonida rasmiy veb-saytlar, ommaviy axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar, maxsus nashrlar va maxsus dasturlar tashkilotlarning jamoatchilik bilan aloqalarini tashkil qilishda qanday vosita sifatida qo‘llanilayotgani o‘rganildi. Ushbu kanallar ekologik masalalar haqida axborot tarqatish va jamoatchilik fikrini jamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Hozirda O‘zbekiston Ekologik partiyasi markaziy Kengashi matbuot bo‘limi tomonidan <https://www.ecouz.uz> veb-sayti yuritiladi. Saytni tahlil qilish davomida uning bir qator ijobiy jihatlari namoyon bo‘ladi. Sayt dizayni vizual jihatdan yaxshi ishlab chiqilgan bo‘lib, u partiya haqidagi ma’lumotlar, yangiliklar, rahbariyat haqida ma’lumotlar, sizning deputingiz haqida ma’lumotlar, aloqa vositalari va partiya a’zo bo‘lish uchun bloglar bilan boyitilgan. Partiyaning logosi rang, simvol va dizayn jihatlaridan uyg‘unlikni saqlagan holda aniq hamda tushunarli tarzda ko‘rsatiladi. Saytda toza ichimlik suvi, atmosfera, suv, yer resurslari, biologik xilma-xillik, yashil iqtisodiyot, iqlim o‘zgarishi va Orol muammolari bo‘yicha ma’lumotlar multimediyaviy shaklda taqdim etilgan, bu partiyaning faoliyat yo‘nalishlari hisoblanadi. Partiyaning rasmiy saytidan tashqari ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot etkazish vositalari ham alohida e’tiborga molik. Ekologik partiya 2022-2023-yillarda ijtimoiy tarmoqlarida joylashtirilgan kontentni quyidagi jadvalda kuzatish mumkin:




2-rasm. Ekologik partiyaning 2022-2023-yillardagi ijtimoiy tarmoq kontenti monitoringi (tadqiqot davomida ishlab chiqilgan).

Ijtimoiy tarmoqning jamoatchiligi tomonidan kuzatib borilishi uning obunachilari sonidan ham ma’lum bo‘ladi. 2023-yil dekabr oyi natijasiga ko‘ra, ekologik partiyaning ijtimoiy tarmoqlardagi obunachilari soni quyidagicha: partiyaning facebook sahifasida 4100, instagramda 3095, yutub sahifasida 470 hamda telegramda 14 646 nafar kuzatuvchisiga ega. Ushbu natija jamoatchilikning asosan telegram sahifasi orqali kuzatib borishini ifodalaydi.

Ishda O‘zbekiston Ekologik partiyasining ommaviy axborot vositalari orqali axborot tarqatishi masalasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. 2022-2023-yillar

mobaynida partiya faoliyatining OAVda chiqishlari monitoringini uning yillik hisobotlari orqali quyidagi chizmada ifodalash mumkin:



3-rasm. Ekologik partiyaning 2022-2023-yillar kesimidagi OAVdagi chiqishlari monitoringi (tadqiqot davomida ishlab chiqilgan).

Ko‘rinib turibdiki, ekologik partiya mazkur yillar davomida eng ko‘p materialni rasmiy saytlari orqali jamoatchilikka yetkazgan. Matbuot, televideniye va rasmiy saytlar natijasi 2023-yilda ko‘tarilgani, radioda esa 2022-yil uzatilgan axborot soni ko‘pligi bilan ahamiyatli.

Zamonaviy jamiyatda ekologik muammolar kun sayin dolzarblik kasb etmoqda. Bugungi kunda yurtimizda ekologiyani muhofaza qilish, atrof-muhitni asrash, o‘simliklar va hayvonot olamini saqlash hamda ekotizimlarni himoya qilishga qaratilgan ko‘plab nodavlat-notijorat tashkilotlar ish olib bormoqda. Ammo ushbu tadqiqot doirasida ularning hammasini batafsil yoritib berish imkonsiz. Shunga ko‘ra, tadqiqotda “Ekolog” uyushmasining ish faoliyatini ko‘rsatilib, ularning ekologik PRdan qanday foydalanish amaliyoti tahlil qilingan.

Jamoat birlashmasi ijtimoiy tarmoqlari orqali axborot yetkazishda telegram, instagram, facebook, youtube platformalarida sahifalarini yuritadi. Jamoat birlashmasining telegram kanali 2023-yil dekabr oyi ma’lumotiga ko‘ra 19615 obunachiga ega. Ekologiya bo‘yicha eng so‘nggi yangiliklar berishga e’tibor qaratilgan mazkur kanalda maxsu bot orqali murojaat qilish mumkinligi haqida ta’kidlanadi. Bundan tashqari telegram tarmog‘ida 372 a’zoga ega guruh tashkil etilgan bo‘lib, unda jamoatchilik tomonidan turli hududlaridagi ekologik muammolar haqida foto, video va audio murojaatlar yo‘llanadi. Ochiq murojaatlar tashkilot tomonidan o‘rganiladi, tegishli mutasaddilarga bog‘lanib, hal etiladi. 2023-yil yakuniga qadar mazkur botga 3000 dan ortiq murojaat yo‘llangan.

Ushbu tashkilot muassisligida “Ecolog.uz” internet nashri ta’sis etilgan. Nashrning asosiy maqsadi “atrof-muhit muhofazasi, ekologik xavfsizlik, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy mavzularda fuqarolarga xolis va ishonchili ma’lumotlarni tezkor yetkazish, shuningdek, tabiat muhofazasi borasida amalga oshirilgan ishlar, ekohuquqbuzarliklar va ularni oldini olishni yoritishdir”¹⁷.

O‘zbekistonda siyosiy partiyalar va nodavlat-notijorat tashkilotlar tomonidan ekologik PR faoliyatini amalga oshirish mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu tashkilotlar, jamoatchilik

¹⁷ “Ekolog.uz” internet nashrining tahririyat nizomi.

bilan samarali aloqa o‘rnatish orqali, ekologik muammolarni hal etishda yordam berish, ilmiy va amaliy ishlanmalarni taqdim etish hamda ekologik madaniyatni rivojlantirish kabi yo‘nalishlarda faoliyat olib borishadi.

